

XORAZM XALFACHILIGI VA BAXSHICHILIGI SAN'ATI TADQIQI MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8411430>

Maxsuda Yusupboyevna Karimova

*Prezident ta'lim muassasalari agentligi
tizimidagi Urganch shahar 1-son
ixtisoslashtirilgan maktab-internatining
oliy toifali ona tili va adabiyoti fani
o'qituvchisi, Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
O'zbekiston +99 897 510 15 56*

Annotatsiya

Maqolada Xorazm xalfachiligi, ularning o'ziga xosligi hamda tadqiqi masalalari, baxshi va xalfalar ijro uslublari haqida fikr yuritiladi. O'zbek folklorininig XIX asr oxiridan bugungi kunga qadar o'rganilishi borasida fikr yuritiladi.

Folklorshunos olim, professor Safarboy Ro'zimboyevning Xorazm xalfalari va baxshilari faoliyati bo'yicha samarali tadqiqoti tahlil qilinadi. Folklor namunalarini, jumladan xalfalar ijodi va repertuari xalqning madaniy turmushi takomili uchun xizmat qilishi va bu kabi folkloristik manbalar noyob nomoddiy madaniy meros sifatida asrash lozimligini bayon qilingan

Annotation

The article discusses Khorezm khalfa, their uniqueness and issues of research, bakhshi and khalfa performance methods. The study of Uzbek folklore from the end of the 19-th century to the present day is considered.

The effective research of the folklorist scientist, professor Safarboy Rozimboyev on the activities of Khorezm khalfas and bakhshis is analyzed. It is stated that folklore examples, including the work and repertoire of khalfas, serve to improve the cultural life of the people, and that such folklore resources should be preserved as a unique intangible cultural heritage.

Аннотация

В статье рассматриваются хорезмские халфы, их уникальность и вопросы исследования, способы исполнения бахша и халфы. Обсуждается изучение узбекского фольклора с конца XIX века до наших дней.

Анализируются результативные исследования учёного-фольклориста, профессора Сафарбоя Розимбоева о деятельности хорезмийских халфы и бахши.

Утверждается, что образцы фольклора, в том числе творчество и репертуар халф, служат улучшению культурной жизни народа, и такие фольклорные ресурсы должны быть сохранены как уникальное нематериальное культурное наследие.

Kalit so‘zlar:

Xorazm baxshi va xalfalari, qiroatxon-qissaxon xalfalar, xalfachilik ijro uslublari va an‘analari, professor Safarboy Ro‘zimboyevning ilmiy tadqiqotlari

Keywords:

Khorezm bakhshi and khalfas, recited-short-story khalfas, methods and traditions of khalfa performance, scientific research of professor Safarboy Rozimboyev

Ключевые слова:

Хорезмский башши и халфа, халфа-декламация, методы и традиции исполнения халфы, научные исследования профессора Сафарбая Ризимбоева

Xorazm mintaqasida dostonlarni qiroat bilan o‘qib eshittiradigan yoki garmon jo‘rligida kuylaydigan ijrochilarni vohada xalfa (xalpa)lar deb yuritiladi. Xalflar tomonidan maxsus ijro usullari va an‘analarining shakllanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu esa ushbu so‘z san‘atkorlarining repertuarlarida zamon bilan bog‘liq ravishda rivojlanishlar hamda o‘ziga xosliklar mavjudligini ko‘rsatadi.

Ayni vaqtda faqat Xorazm vohasidagi baxshi va xalfachilik san‘atining o‘rganilishi, ilk manba‘lari, shoir-dostonchi xalfalar, qiroatxon-qissaxon va sozanda-ijrochi xalfalar ularning ijodiy faoliyatlari va repertuarining o‘ziga xos xususiyatlari, ularning turkiy folklor taraqqiyotidagi ahamiyati hamda o‘rnini baholash fanimiz rivoji uchun muhimlik kasb etadi. Xalfalar noyob iste‘dod egalari bo‘lib, o‘tmishda yaratilgan ko‘pgina insonni ma‘naviy yuksalishga undaydigan so‘z san‘ati durdonalari aynan, ularning iste‘dodlari tufayli bugungi kungacha yetib kelishida ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan xalfalar ijodini har tomonlama tadqiq qilish folkloristika uchun muhimlik kasb qiladi. Bu bo‘shliqni to‘ldirish borasida folklorshunos olim Safarboy Ro‘zimboyevning ilmiy tadqiqotlari, folkloristic to‘plovchilik tadqiqotlarida hamda ilmiy nashrlari, monografiyalari va o‘zi ilmiy rahbarlik qilgan qator ilmiy ishlarda o‘z aksini topgan.

XX asrga kelib baxshichilik va xalfachilik san‘ati, shuningdek, dostonchilik dunyoning ko‘pgina hududlarida so‘nish arafasiga keldi. Tadqiqotlar orqali folklor namunalarining unutilishini oldini olish, bu borada izlanishlar qilgan olimlar faoliyatiga oid monografiyalar yaratish folklorshunoslik sohasida qilingan barcha tadqiqotlarni tasniflash va talqin orqali keng xalq ommasini folklor namunalarini qadrlashga undovchi omil yaratilgan bo‘lardir.

O‘zbek folklorshunosligida xalfachilik, xalfalar ijrosi, ularning badiiy-estetik tabiati va o‘ziga xos jihatlari borasida V.M.Jirmunskiy, H.T.Zaripov, M.S.Saidov, T.M.Mirzayev, H.J.Abdullayev, M.Jo‘rayev, Sh. Turdimov, J.Eshonqulov,

N.A.Rahmonov va O.Madayev kabi folklorshunoslar muhim fikr-mulohazalar bildirganlar, monografik tadqiqotlar ham e‘lon qilganlar. Aynan, Xorazm xalfalari va ularning ijro usullari hamda mahorati bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan olimlar: J. Qobulniyozov, T.Jalolov, T.Qilichev, T.Mirzayev, H.Abdullayev, S.Ro‘zimboyev, O.Jumaniyozov, X.Rajabova, S.Ollaberganova, O.Matniyozovlardir.¹⁷¹ Ushbu qilingan tadqiqotlarning aksariyati bir-birini takrorlaydi. Ayrimlarida esa to‘la ko‘chirmakashlik yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayrim tadqiqotlarda esa Xorazm xalfalari haqida taxminiy fikrlar bayon qilinadi. H.Abdullayevning “Maxtumquli va o‘zbek adabiyoti” risolasida shunday fikrlar uchraydi: “Xotin-qiz san‘atkorlar – xalfalar revolyutsiyaga qadar (1920-yilgi inqilob nazarda tutilmoqda) cholg‘u asbobi yordamida emas, balki ikki payola yoki likobchalarni bir-biriga urib (cho‘qishtirib)undan chiqqan ovozga jo‘r bo‘lib, ishqiy-romantik (romanik) va qahramonlik dostonlaridan lirik va sotsial mazmunga boy bayotlarni, shuningdek, Navoiy va Maxtumquli kabi klassik shoirlarning asarlarini kuylaganlar¹⁷².

Piyolalarni cho‘qishtirib qo‘shiq kuylash qadim zamonlarda bo‘lgan. Ammo Xiva xalfalaridan xonim xalifa Saidamat qizi 1895-yildan boshlab qo‘shiq va dostonlarni garmon jo‘rligida kuylagan¹⁷³. Ushbu ma‘lumotlar S.Ro‘zimboyev va N.Sabirovalar muallifligidagi “Xorazm xalfachiligi an‘analari” uslubiy qo‘llanmasida keltirilgan.¹⁷⁴ Uslubiy qo‘llanma-xrestomatiya Xorazm xalfachiligi san‘atining kelib chiqishi, tarixiy ildizlari xalfalar repertuari haqida to‘liq ma‘lumotlarni qamrab olgan. Xorazmda faoliyat ko‘rsatgan mashhur xalfalar haqida biografik ma‘lumotlar va ular ijodlaridan namunalar keltirilgan. Uslubiy-qo‘llanma-xrestomatiya f.f.d.Sh.G‘.Turdimov muharrirligida nashr qilingan.

1 Qobulniyozov J. “Xorazm xalq qo‘shiqlari” – T.: “Fan”, 1965. – B.23-27.

Jalolov T. “O‘zbek shoirlari” 1-kitob. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1970. – B.239-241;

Qilichev T. “Xorazm xalq teatri” – T.: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988. B.114-124;

Mirzayev T. “Xalq baxshilarining epic repertuari”. – T.: “Fan” –1979.

Abdullayev H. “So‘z sehri” – T.: TDPU nashriyoti, 2005. – B.4-11;

Ro‘zimboyev S. “Xalq dostonlari va xalfalar ijodi”// “Adabiy meros” – T.: “Qo‘lyozmalar instituti” nashriyoti, 1984. – B.9-13;

Ro‘zimboyev S. “Ojiza” – T.: 2003. – B.-8;

Ro‘zimboyev S. “Anash xalifa”, – T.: Milliy kutubxona “nashriyoti, 2006. – B.3-6;

Ro‘zimboyev S. “Xorazm dostonlari” – T.: “Fan”, 1985. – B.27-33;

Jumaniyozov O. “Xalifa”// “Ilm sarchashmalari”, Urganch. 2003, № 4 – B.71-72

Rajabova X. “Ayol baxshilar ham bo‘ladimi?” “Ma‘rifat” gazetasi, 2002, 2-fevral soni

¹⁷² Abdullayev H. “Maxtumquli va o‘zbek adabiyoti” – T.: “Fan”, 1983. – B.32;

¹⁷³ Yusupov Yu. “Xorazm shoirlari”, – T.: “Adabiyot va san‘at”, 1988. – B.117.

¹⁷⁴ Ro‘zimboyev S. va Sabirova N. “Xorazm xalfachiligi an‘analari” uslubiy qo‘llanma// “Urganch davlat universiteti” nashriyoti 2020-yil. – B.188.

“Urganch davlat universiteti” nashriyoti 2020-yil) Uslubiy qo‘llanma xrestomatiya filologiya fakulteti talabalariga, magistrantlar va xalq og‘zaki ijodiyotiga qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan.

Mazkur uslubiy qo‘llanmada Xorazm xalfachiligining tarixiy ildizlariga asosli fikrlar bayon qilinganligi bilan o‘zbek folklorshunosligida xalfachilik yo‘nalishiga oid muhim ma‘lumotlar majmuasi ekanligi bilan g‘oyat ahamiyatli hisoblanadi. Ya‘ni Xorazm xalfachiligiga oid ma‘lumotlar qiyosiy tahlil asosida tasnif qilinadi va bu mavzudagi ayrim tadqiqochilarning xato va o‘rinsiz ma‘lumotlari tahlil qilinib, mavzuga oid xatolarni bartaraf qiluvchi dalillar keltiriladi. Folklorshunos tadqiqotchi S.Ollaberganovning “Xalfalar ijodining o‘zbek folkloridagi o‘rni” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida tadqiqotchi xalfachilikni quyidagicha tasnif qiladi: shomon xalfa, yanga xalfa, dostonchi-qissaxon xalfa, xonanda xalfa, shoira xalfa kabi turlarga ajratadi. Avvalo, shuni ta‘kidlash joizki, J.qobulniyozov, T.Mirzayev, N. Saburov va S.Ro‘zimboyevlar tomonidan qilingan tasnif va talqin bir-birini to‘ldiradi. S.Ollaberganovning tasnifidagi shomon xalfa umumiy gaplar bilan tavsiflangan. uning tasnificha Xorazmda kasallarni davolovchi ayollarni xalfa emas, balki po‘rxon (parixon) deb yuritilgan. Bu toifa ayollar o‘tgan asrning 50-yillaridagi faoliyat yuritganlar. hozirda bu kasb barham topgan. Xalfalarni po‘rxonlar bilan aralshtirmaslik kerak¹⁷⁵.

“Xalfa” atamasining etimologiyasi haqida Tadqiqotchi O.Matniyozovning “xalfa nomining etimologiyasi xususida” maqolasidan quyidagi fikrlarni keltirish mumkin. “Xalpa” atamasi xorazmiy tiliga oid bo‘lib, “kichik kohin” ma‘nosiga yaqin turadi. “Dadestan-I menog-ixrad” kitobida xalpalarning majburiyatlari quyidagicha keltirilgan: “Zarur yo‘sinda dinini saqlash, zarur yo‘sinda ma‘budlarni sharaflash va ularni alqash; qoida, nizom, odat va udumlarga rioya qilish; odamlarga hidoyat yo‘lini ko‘rsatish orqali ulani dozah azobidan qutqarish”¹⁷⁶

“Xalfa” atamasi arabcha bo‘lib, “ustoz” ma‘nosiga ega. Xorazmda bu atama savodxon, so‘zga chechan, sozanda ayollarga nisbatan ishlatiladi. Ayrim manbalarga qaraganda xalfalar Xorazmda juda qadimdan faoliyat ko‘rsatganlar.

Eng qadimgi davrlarda “Avesto” oyatlarini qiroat bilan o‘quvchi ayollar xalfa deb yuritganlar. Xalfalar Xorazmshohlar saroyida ham xizmat qilganlar. Keyinchalik bu ayollar Qur‘ondagi oyatlarni qiroat bilan o‘qishga o‘tganlar va

¹⁷⁵ Ro‘zimboyev S. va Sabirova N. ““Xorazm xalfachiligi an‘analari” uslubiy qo‘llanma/“Urganch davlat universiteti” nashriyoti 2020-yil. –B.188- 4.

¹⁷⁶ Matniyozov O. “Xalfa nomining etimologiyasi xususida” // Xorazm Ma‘mun akademiyasi xborotnomasi, 2016. N#4 – B.44

hozirgacha bu odat saqlanib qolgan. Xorazm xalfachiligi an'alarini o'z mohiyatiga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin:

1. **Ijodkor, shoira xalfalar** (Xonim suvchi Saidamat qizi, Ojiza va boshqalar).

2. **Ijrochi-sozanda xalfalar** (Soraxon Ollaberganova, Ullibibi Boyjonova, Nazira Sobirova va boshqalar).

3. **Dostonlarni muayyam qiroat bilan o'qib eshittiruvchi xalfalar** (Niyozjon xalfa Musayeva, So'na xalfa Eshmatova va boshqalar).

Birinchi guruhga kiruvchi xalfalar xalq dostonlaridan "Oshiq G'arib", "Asil va Karam" kabilarning to'la matnini yoddan bilganlar va garmon, doira jo'rligida ularni xotin-qizlar davrasida kuylab yurganlar. O'z navbatida ular badiiy ijod bilan ham shug'ullanganlar. Ikkinchi guruhga kiruvchi xalfalar to'y va tantanalarda, turli sayrlarda xizmat qilishga, keyingi guruhga kiruvchi xalfalar to'ylarda ham, azalarda ham xizmat qilishadi. Azalarda faqat diniy va didaktik xarakterdagi dostonlar o'qiladi. Bu toifa xalfalar qissaxon deb ham yuritiladi. O'zbek xalqi orasida **qissaxonlik** qadimdan mavjud bo'lib, turli davrlarda qiroatxon-qissaxon kishilar tomonidan kitobat qilingan dostonlar o'qib eshittirilgan. Bu an'ana hozirgacha davom etib kelmoqda.

Qissaxon-dostonchilar erkaklar davrasida "Rustami doston", "Hikoyati Go'rog'li Sulton" kabi dostonlar bilan birga diniy ruhdagi, payg'ambarlar tarixi bilan aloqador dostonlarni ham o'qib eshittirganlar. Binobarin, o'zbek xalqi orasida doston ijro etuvchi kishilarning doirasi keng bo'lib, ular ijro jarayonining xilma-xilligi bilan bir-biridan muayyan darajada farqlanadilar. Xalq dostonlarini avloddan-avlodga etkazishga baxshi, xalfa, qissaxonlarning hissasi benihoya kattadir. H.Zarif, B.Karimov, M.Afzalov, M.Alaviya, J.Qobulniyozoa, M.Saidov, T.Mirzayev kabi olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, XIX asr va XX asr boshlarida o'zbek baxshilari repertuarida yuz ellikka yaqin doston bo'lgan. Folklorshunoslarimiz ulardan yuzdan oshig'ini yozib olganlar. Hozirga qadar yuzdan ortiq baxshi, xalfalar aniqlangan. Ulardan: Jumanbulbul, Jassoq, Bo'ron shoir, Jalmon baxshi, Sulton kampir, Tilla kampir, Xonim xalfa Saidamat qizi, Ojiza, Bibi Shoira, Eshvoy baxshi, G'aribniyoz, Amin baxshi, Yo'ldosh bulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoir, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir, Haybit soqi, Jumanazar baxshi, Ahmad baxshi, Bola baxshilar xalq orasida keng tanilganlar. Ergash Jumanbulbul og'li, Fozil Yo'ldosh og'li, Po'lkan shoir, Islom Nazar og'li, Umir shoir, Abdulla shoir, Xolyor Abdugarim og'li, Qurbon sozchi, Anajon Sobirova (Anash xalfa), Ojiza kabi baxshi-shoir va shoira-xalfalar ko'plab yangi dostonlar va terma, qo'shiqlar yaratdilar. Baxshilar, asosan, doston va terma, xalfalar esa doston va qo'shiq kuylaydilar. Ular xalq ijodining boshqa janrlarini

bilsalar-da, ijro etmaydilar. Baxshilarning aksariyati 10-15, ba'zilari esa, masalan, Po'ikan yetmishdan ortiq dostonini yoddan bilganlar. Ayni paytda ular repertuaridagi bir-ikkita dostonni yuksak mahorat bilan kuylaganlar. Masalan, "Alpomish"ni Fozil baxshi,"Ravshan"ni Ergash Jumanbulbul,"Orzigul"ni Islom shoir kuylaganda ularning oldiga baxshilar tusha olmagan.

Xorazm baxshichilik va xalfachilik an'analari.

Dostonlar o'zining ijrochiligi bilan tirikdir. Shu sababli mazkur janrni ularning ijrochilari baxshilarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qadimiy an'analarga ega bo'lgan o'zbek eposining salmoqli qismini Xorazm dostonchiligi tashkil etadi va bir qator o'ziga xos qirralari bilan umumo o'zbek dostonchiligidan ajralib turadi.

Bu yerda qadimdan boshlangan o'troq hayot madaniyatining yuksalishiga,yozma adabiyotning taraqqiyotiga va professional san'atning rivojlanishiga ta'sir etgan.Bu va boshqa qator omillar vohada tar-qalغان epik asarlarning O'zbekistonning boshqa regionlaridagi dostonlardan muayyam farqlarga ega bo'lishiga olib kelgan. Bu farqlar nafaqat ularning mazmunida, balki, kompozitsion qurilishi, badiiy uslubi, obraz yaratish usullarida ham namoyyon bo'ladi. Bular, asosan, quyidagilardir:

1. Eng avvalo, Xorazm dostonlaridagi she'riy parchalar ichki bog'iz tovuchi bilan emas, tashqi tovuchda kuylanadi.

2. Bu regiondagi dostonlar ayrim tomonlari bilan yozma adabiyotga ancha yaqin bo'lib,hajmi jihatdan kichik va ularning mazmuni muayyan muntazamlikka ega.

3. Musiqaviylik va she'riy matnlarning qat'iy qonun-qoidalariga asoslanishi va ularning maxsus kuylarni mukammal biluvchi baxshi ansambli tamonidan ijro etilishi regeondagi dostonchilikning yana bir xususiyatini tashkil etadi.

4. Xorazm dostonlarida qahramonlarning his-tuyg'ulari, ichki kechinmalari asosan she'riy parchalar orqali, ularning hatti-harakatlari, yurish-turishlari, tevarak-atrofdagi voqealar nasriy tarzda ifoda etiladi.

5. Vohada tarqalغان dostonlarning obrazlarida ham alohidaliklar mavjud. Ertaklar mazmuni asosiga qurilgan "Shahriyor","Hurliqo va Hamro"kabi dostonlarni mustasno qilganda,bu joydagi dostonlarning obrazlari ma'lum darajada hayotiyliigi bilan ajralib turadi. Ularning faoliyati iloji boricha dalillanib, asoslanib boriladi. Binobarin, obrazlar faoliyatini dalillash, uni hayotiy faktlarga yaqinroq qiyofada tasvirlash Xorazm dostonlaridagi obraz yaratishning o'ziga xos xususiyatlaridandir.

6. Dostonlarni boshlash va tugallashda ham muayyam o'ziga xosliklar mavjud. Xorazmlik baxshilar doston boshlash oldidan maqomlarning chertim

yo'llaridan bir-ikki kuy ijro etishadi yoki Mashrab, Maxtumquli kabi shoirlarning didaktiv xarakterdagi she'rlarni kuylashadi. Doston tugagach, sho'x, o'ynoqi kuy chalinadi va raqs boshlanadi.

Xorazm dostonlarining xalq orasida targ'ib qilinishi asosan ikki turli yo'l bilan amalga oshib kelgan:

A) baxshilar va dostonchi – ansambli xalfalar repertuarida orqali og'zaki tarzda;

B) yakka xalfalar va qissaxonlar repertuari orqali kitobiy matn o'qib yoki yodaki eshittirish tarzida.

Baxshilar repertuari haqida gapirganda shu narsani nazardan qochirmaslik lozimki, doston kuylash uslubi, baxshilarning ustozlik-shogirdlik an'anali, ularning epik repertuari vohaning o'zbeklar yashaydigan barcha hududda ham bir xil xususiyatga ega emas. Ular kuylanish uslubi, ijrochilari, repertuari hamda ishlatiladigan musiqa asboblarining turlari bilan o'zaro farq qilinadi. SHu sababdan bu yerdagi dostonchilikni **ikkita an'ana** asosida o'rganishga tog'ri keladi:

1. Janubiy Xorazm – Xiva dostonchilik maktabi.

Uning markazini Xiva shahri deb belgilash lozim. Bu hududda, asosan, qadimda sart deb yuritiluvchi, o'zbek tilining og'uz lahjasida so'zlashuvchi aholi yashaydi. Ularning dostonchilik an'alariga xos bo'lgan asosiy bo'lgan asosiy xususiyatlar quyidagicha:

A) Baxshi garmon yoki dutor jo'rligida kuylaydi. Uning yonida, albatta, bulamonchi va g'ijjakchi bo'lishi shart. Keyingi davrlarda dutor o'rniga rubobni qo'llash va ansambilga doirachini qo'shish hollari sodir bo'lgan.

B) Bu joydagi baxshilar repertuarida "Go'rog'li" va "Oshiq" turkimiga kiruvchi dostonlar ko'proq tarqalgan bo'lib, ularlan ko'pchiligining ildizi qo'lyozma dostonlarga borib taqaladi. SHu sababli bu asarlarning xajmi ixcham, uzoqi bilan 2-2,5 saotga mo'ljallangan. Baxshilar o'zbek tilining og'uz lahjasida so'zlaydilar.

2. Shimoliy Xorazm – Mang'it dostonchilik maktabi.

Bu hududda, asosan, o'zbek tilining qipchoq lahjasida so'zlovchi aholi istiqomat qiladi. Bu hudud baxshilarning ijodi SHimoliy Xorazm dostonchiligi an'alariga mansubdir. Uning markazini shartli ravishda Mang'it shahri deb belgilash lozim. Bu an'analarning xususiyatlari quyidagilardir:

A) Baxshi dutor jo'rligida kuylaydi, uning yonida bulamonchi va g'ijjakchi bo'ladi. Ansamblda doirachi ishtirok etmaydi.

B) Bu joylardagi baxshilar kuylaydigan dostonlarning ayrimlari Janubiy Xorazmdagi baxshilar repertuarida uchramaydi. Xuddi shu dostonlar hajmi jihatdan ham ancha salmoqdor. Masalan, mang‘itlik Tursun baxshidan yozib olingan “Huriliqo va Hamro” dostoni Xiva baxshilari repertuarida yo‘q. Hajmi jihatidan esa bu doston ancha keng ko‘lamga ega bo‘lib, uni baxshi bir necha soat davomida ijro etadi. Janubiy Xorazmda tarqalgan dostonlar baxshilar repertuarida aksariyat yozma nusxalar asosida kirib kelgan bo‘lsa, SHimoliy Xorazmda ko‘pgina dostonlarning qadimdan beri og‘zaki ravishda ustoz shogirdga o‘tib kelganligi seziladi. Ayrim dostonlarning hajman kattaligining sabablaridan biri ham shundadir. Bu hudud baxshilari repertuaridagi aksariyat dostonlar she‘riy parcha bilan yakunlanadi.

Binobarin, Mang‘it baxshilari kuylaydigan dostonlarning hajman keng bo‘lishi, nasriy qismning salmog‘i nazmiy qismnikidan qolishmasligi, finalning aksariyat she‘riy tarzda yakunlanishining sabablari aholinig etnik tarkibi bilan bog‘liq. Shimoliy Xorazmda yashovchi o‘zbeklar vohaga kelib o‘rnashgan paytda ulardagi baxshilarning doston kuylash an‘anasi boshqacharoq bo‘lgan. Ular Xorazmga ko‘chib kelgach, mahalliy baxshilar ta‘sirida asta-sekin ichki bog‘iz tovushida kuylashga o‘tganlar. So‘ngra repertuarida, musiqada o‘zgarishlar sodir bo‘lgan, dostonlar hajmi kichraytirilgan va hokazo. Lekin, baribir, eski an‘analarning izi butunlay yo‘qolib ketmagan. Darvoqe, Xorazmdagi dostonchilikning ikki alohida guruhga bo‘linishi xalqning etnogenezi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu hol ikkala dostonchilik maktabining musiqasi masalasida ham ko‘zga tashlanadi. Ulardagi kuylarning mushtarak tomonlaridan tashqari, alohidaliklari ham mavjud. Baxshilarning bergan ma‘lumotiga ko‘ra, Xiva baxshilari o‘z kuylarini Shirvoniy, Mang‘it baxshilari esa kuylarini Eroniy deb yuritishadi.

Xorazm dostonlarining she‘rlari alohida nomga ega bo‘lgan musiqa kuylariga ega. Masalan, Xiva dostonchiligida “Shirvoniy”, “Ilg‘or”, “Nolish”, “Zorinji”, “Shoh ko‘chdi” kabi kuylar mavjud. Mang‘it dostonchilik maktabida esa “Eroniy”, “Qo‘sha dast”, “Beradam”, “Saltiq” kabi 21 ta kuy ishlatiladi. Kuylarni solishtirganda o‘nta kuy nomi bir-biriga aynan tog‘ri keladi. Biroq, ijroda oz bo‘lsa-da farqlar seziladi. Baxshilar masalasiga kelganda shuni aytish kerakki, 1908-yilda Xorazmga kelgan sharqshunos A.N.Samoylovichning o‘sha paytda hayot bo‘lgan Suyav baxshidan olgan ma‘lumotlariga ko‘ra, XIX asrning birinchi yarmida Otash baxshi, Nurjon baxshi, Eshvoy baxshi, Matniyoz qori (G‘aribniyoz) kabi baxshilar yashab ijod qilishgan. Xorazm vohasi baxshilarga xos umumiy xususiyatlaridan biri ularning ikki tilda o‘zbek, turkman, ba‘zan uch tilda - tilda - o‘zbek, turkman,

qaraqalpoq tillarida doston kuylashlaridir. Xorazm baxshilarining so‘nggi avlodlari Ahmad baxshi va Bola baxshi ham o‘zbek va turkman tillarida doston kuylash qobiliyatiga ega bo‘lganlar. Baxshilar ijodidagi ushbu xususiyat ularning repertuaridagi dostonlarning, musiqa kuylarining ham ma‘lum darajada o‘xshash bo‘lishiga olib kelgan. Baxshilar kuylarni “noma” (nag‘ma) deb atashadi. Ular asosan, ishqiyy-romantik dostonlarni kuylashadi. Bu doston asosan, “Go‘rog‘li” va “Oshiq” turkimiga oiddir.

Xorazm doston ijrochiliri haqida ayrim ma‘lumotlar turli manbalarda berilgan bo‘lsada, Xorazm baxshilari va xalfalari shajarasi haqida hozirgacha yaxlit bir tadqiqot yaratilmadi. Chunki, Xorazm doston ijrochilari haqida eng dastlabki yozma manbalar XIX asrning birinchi choragidan boshlanadi. Bu manbalar ham asosan chet eldan Xorazmga tashrif buyurgan ayrim sayohatchilar faoliyati bilan bog‘liqdir. Shulardan biri 1819-yilda Xivaga kelgan rus zobiti N.Muravevga tegishli xotiralardir. U Xivada bo‘lganida baxshilar shaxsi haqida konkret ma‘lumot bersada, ularning ijrosi haqida ba‘zi bir mulohazalarni bildirgan. Jumladan, u baxshilar haqida shunday yozadi: “Kuylovchilar ovozlari, tana harakatlari bilan o‘zlaridan oldin o‘tgan avlodlarning epchilliklarini, qo‘rqmasliklarini g‘ayrat hamda jasoratlarini ko‘rsatishga harakat qiladilar, ularning qo‘shiqlari ayrim hollarda tun bo‘yi davom etadi. Ular baland va xirillagan ovoz bilan kuylashadi”.

Xorazm baxshilari haqida ayrim qaydlar H.Vamberi asarlarida ham ko‘zga tashlanadi. Biroq, sharqshunos olim birorta konkret baxshi haqida ma‘lumot bermasdan, ular haqida yuzaki tarzda so‘z yurutadi. Masalan, u shunday yozadi: “mazkur xrestomatiyada, asosan, baxshilar tomonidan aytiluvchi, ularning o‘zlari yaratgan, yoki tarjima qilgan shimoliy turk xalqlarining barchasiga tanish, ular sevgan, ularning tili, fikr va o‘ylarini aks ettiruvchi materiallar bor. Ular o‘zbek xalqi va ularning xonliklari bilan qo‘shni yashovchi qirg‘izlar orasida keng tarqalgan va hamma joyda dutor yoki qo‘biz jo‘rligida bir xil kuylanadi. H.Vamberining xrestomatiya kitobiga yozgan ushbu so‘zboshidagi fikrlar ilmiy jamoatchilik uchun nihoyatda qimmatli bo‘lishi bilan birga olimning ayrim fikrlarini tuzatib o‘tishga tog‘ri keladi. Chunonchi, ushbu so‘zboshida olim baxshilar haqida so‘z yuritib, “baxshilar tomonidan aytiluvchi, ularning o‘zlari yaratgan yoki tarjima qilgan ... materiallar” degan iborani ishlatdiki, bu fikr uning o‘zbek baxshilari haqida to‘la tasavvurga borib etmaganini ko‘rsatadi. Negaki, eng avvalo, baxshilar xalq ijodiyotiga mansub bo‘lgan terma va dostonlarni ijro qilishadi. Ularning repertuaridagi asarlar asosan ustozdan shogirdga o‘tadi. Ular dostonni qardosh xalqlar baxshilar repertuaridan olganda ham H.Vamberi aytganday “tarjima qilib” emas, balki ijodiy qayta ishlash orqali o‘zlashtiradilar.

Shuningdek, uning o'zbeklar orasida tarqalgan dostonlar qo'shni qirg'iz va boshqa xalqlar orasida bir xil kuylanadi degan fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki, dutor jo'rligida doston kuylash bilan qo'buz jo'rligida ijro bir-biridan keskin farqlanadi. Demak, H. Vamberi Xorazm doston ijrochilari haqida so'z yuritsa-da, mazkur ana haqida to'la ilmiy ma'lumot bera olmaydi. Xorazm vohasida tarqalgan "Go'rog'li" dostonlari va ularning ijrochilari haqida eng muhim ma'lumotlar 1908-yilda vohaga kelgan rus sharqshunosi A.N.Samoylovich asarlarida uchraydi. U Xorazmda bo'lgan paytida dostonchilikning eng faol markazi bo'lgan Po'rsiga boradi. (Turkmanistonning hozirgi Bo'ldimsoz tumani markazi) "Men Po'rsida butun xonlikda eng mashhur bo'lgan 58 yashar chovdur (urug' nomi) Suyav baxshining aytganlarini tingladim", deb yozadi u.

A.N.Samoylovich Xivada bo'lganida baxshilar ijrosini bevosita tinglagani haqida quyidagicha ma'lumot beradi "Xivalik baxshining o'zi dutor chalib, kitobiy dostonni ijro etayotganida ikki sozanda bulamon chalishib, unga jo'r bo'lib turishadi". Demak, A.N.Samoylovich bu masalaga H.Vamberiga o'xshab yuzaki munosabatda bo'lmagan. Sharqshunos olimning Po'rsilik Suyav baxshidan olgan ma'lumotlariga qaraganda, Po'rsi dostonchilik maktabiga o'sha payt Suyav baxshi boshchilik qilib, atrofiga ko'plab o'zbek, turkman va qoraqapoq baxshilarini jamlagan va turkman o'zbek hamda qoraqalpoq tillarida doston kuylagan. Suyav baxshi o'z ustozlari o'zbek baxshisi G'aribniyoz va undan oldin o'tgan o'zbek baxshilari Eshvoy, Otash, Nurjon, Niyozmat baxshilar haqida ma'lumot beradi. Suyavning o'zi 1850-yilda Po'rsining Seitnazar go'mmachi ovulida tug'ilgan. Yuqorida nomi keltirilgan baxshilar XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod qilishgan.

XIX asrning yarmida Abdurahim, Muso, Otaniyoz, Otajon, Rizo baxshilar Suyav bilan bir davrda faoliyat ko'rsatishgan. Taniqli folklorshunos Qalli Ayimbetovning yozishicha, Qo'ng'iroq, Po'rsi, Xo'jayli atroflarida bu baxshilardan keyin Odilboy, Ollayor, Qutim baxshilarning doston kuylaganliklari haqida ma'lumotlar bor. Asrimizning boshlarida Xo'jyoz (qipchoq), Ahmad, Qo'chqor (Mang'it), Xo'jyoz garmonchi (Shabboz), Qo'shako'r (To'rtko'l), Eshniyoz (Qo'ng'iroq), Jumanazar (Yangiariq), Xo'jik baxshilar mashhur bo'lganlar. Afsuski, ushbu baxshilarning hayotiga oid batafsil ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ayrim baxshilar hayoti haqidagi ma'lumotlar esa ularning zamondoshlari esdaliklari orqali etib kelgan. Masalan, Madrahim Yoqubov Sheroziy XIX asrning oxiri XX asr boshlarida yashagan quyidagi baxshilarning ayanchli tagdiri tog'risida xotiralar qoldirgan: Eshniyoz baxshi. Qo'shko'pirning O'zbekiyop qishlog'ida yashagan. Xonning qarindoshi Saidabdullaning to'yiga bormagani uchun burnidan ip

o'tkazib qo'shiq aytirilgan. Jumyoz baxshi. Hazoraspda yashagan. Ziyofatga kechikib kelgani uchun Saidmurod bojimonning og'li hovuzga itarib yuborgan. O'pkasi shamollab o'lgan. Biz quyidagi hayotiy faoliyati haqida ayrim hujjatlar saqlanib qolgan baxshilar haqida qisqacha ma'lumot beramiz. Yetmishboy Toshkent Madaniyat institutida sirdan tahsil oldi. Hozir u Sayyod qishlog'idagi badiiy havaskorlik jamoasiga badiiy rahbar bo'lish bilab birga, Yangiariq pedagogika kasb-hunar kolleji Musiqa yo'nalishi talabalariga Xorazm baxshi-dostonchilik san'ati bo'yicha yoshlarga bilim berib kelmoqda. Yetmishboy Abdullayevning O'zbek xalq baxshichilik san'ati, jumladan, Xorazm dostonchiligini yana-da rivojlantirishga qo'shgan hissasi uchun 2011-yilda unga "O'zbekiston xalq baxshisi" unvoni berildi. Bugungi kunda baxshi ijodini yana-da gullab-yashnamoqda.

Xorazm folklor maktabining yaratilishi va rivojida olimning qo'shgan hissasi

Yetuk folklorshunos olim Safarboy Ro'zimboyevning o'zbek folklori tadqiqiga oid izlanishlari Xorazm folklor maktabining yaratilishi va rivoji uchun salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Olim izlanishlarining ahamiyatligi shundan iboratki, o'zbek folklorining lokal xususiyatlarini muayyan hududlar materiallari asosida keng ko'lamda fundamental tadqiq etganligi folkloristikamiz xazinasini boyitishga xizmat qilganligini yuksak e'tirofga loyiqdir. Butun umrini Xorazm vohasi aholisining og'zaki poetik ijodiyotini to'plash, nashr etish va o'rganishga baxsh etgan fidoyi olim, ayniqsa, Xorazm dostonchiligi epik an'alarini tadqiqi masalalari bo'yicha to'plovchilik faoliyati bilan folklorshunoslikka qimmatli manbalarni taqdim qilgan hamda Xorazm xalq qo'shiqlari va dostonchilik an'alarining yirik tadqiqotchisi sifatida tanilgan. Uzoq yillar mobaynida Xorazm vohasi folklorini to'plash, nashr etish va ilmiy o'rganish bilan izchil shug'ullanib kelgan Safarboy Ro'zimboyev 1972-yilda professor Q.Maqsetov rahbarligida "Xorazm vohasi o'zbek xalq qo'shiqlarining g'oyaviy-badiiy

xususiyatlari" mavzuidagi nomzodlik, 1990-yilda Xorazm xalq dostonlarining spetsifikasi, tipologiyasi va poetikasi" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Serqirra olimning tadqiqotlari va o'zbek folklorshunosligining ravnaqiga qo'shgan hissalarini inobatga olgan holda hamda filologiya sohasidagi ilmiy-pedagogik faoliyati uchun 1993-yilda professor ilmiy unvoniga sazovor bo'lgan. O'zbek folklorshunosligining mohir tadqiqotchisi Safarboy Ro'zimboyevning ilmiy faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning ilmiy-ijodiy faoliyati juda samarali, sermahsul bo'lganligini e'tirof qilish o'rinlidir. Zero, uning "Xorazm xalq qo'shiqlarida tarixiy shaxslar obrazi" (1970), " Xorazm xalq

qo‘shiqlari” (1970), “Xalq qo‘shiqlarida parallelizmlarni yuzaga keltiruvchi manbalar” (1972), “Xalq shoirlari asarlarining qo‘shiqlar bilan munosabatiga doir” (1975) singari dastlabki ilmiy maqolalari Xorazm vohasida yaratilgan va asrlar davomida kuylab kelingan xalq qo‘shiqlarining o‘ziga xos badiiy xususiyatlarini yoritishga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi. O‘zining folkloristik faoliyati mobaynida qo‘shiqlarni yozib olishga alohida e‘tibor qaratgan Safarboy Ro‘zimboyev o‘zi to‘plagan materiallar asosida “Xalq qo‘shiqlari”(to‘plovchi, nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi; Toshkent, 1983, M.Alaviya bilan hamkorlikda), “Xurshidi jahon galdi” (Toshkent, 1987) kabi to‘plamlarini chop ettirdi. Olimning dastlabki monografiyasi “Xorazm dostonlarn” bo‘lib, u 1985-yilda Toshkentda nashr qilingan “Oshiq” turkumi dostonlarning go‘yaviy-badiiy xususiyatlari” nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanmasi 2007-yilda, “Xorazm dostonchiligi epik an‘analari” risolasi 2008-yilda kitobxonlarga taqdim etildi. Bu ilmiy asarlarida olim Xorazm dostonchiligi epik an‘analarining qadimiy asoslari, ijrochilari, dostonchilik maktablari va an‘anaviy epik asarlar badiiyati xususida qiziqarli fikrlarni bayon etgan. Safarboy Ro‘zimboyev faqat Xorazm dostonlarinigina o‘rganib qolmasdan, bu hududda ommalashgan epik sujetlarning boshqa turkiy xalqlardagi versiyalari hamda ular o‘rtasidagi mushtarakliklarni aniqlash borasida ham keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borgan. Olim tomonidan chop ettirilgan —Эпос "Гороглы" у тюркоязычных народов (1993), “Parizodning arazi” dostonining tipologik

xususiyatlaril (1994), “Alpomish” dostoni genezisi va uning Xorazm dostonchiligi bilan aloqasil (1999), “Тюркские версии дастана —Ашык Гарибл (2002) singari maqolalari epik sujetlar tipologiyasini tadqiq etishning ajoyib namunalaridan sanaladi. O‘zbek folklorining tarixiy taraqqiyoti, epik sujetlar, an‘anaviy motivlar obrazlarning mifologik asoslarini yoritish folklorshunoslikning dolzarb muammolaridan biri ekanligini hisobga olgan ustoz Safarboy Ro‘zimboyev o‘zining keyingi yillarda olib borgan izlanishlarida “Avesto” mifologiyasi va uning o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi talqini, Beruniy, Zamaxshariy, Ogahiy kabi buyuk allomalarning asarlaridagi folklor numanalari va ularni bugungi o‘zbek folklori bilan qiyosiy o‘rganish kabi masalalarga jiddiy e‘tiborni qaratdi. Natijada, uning “Az-Zamahshariy va xalq ijodiyoti” (1996), “Ogahiy va xalq ijodiyoti” (1999), —“Avesto”ning Xorazm dostonlaridagi izlari” (2001), “Avesto” mifologiyasi va Xorazm folklori” (2001, hamkorlikda), “Beruniy asarlarida etnografiya va folklor masalalarining yoritilishi” (2002), “Beruniy va folklore” (2003) kabi ilmiy maqolalari yuzaga keldi. Professor Safarboy Ro‘zimboyevning folkloristik faoliyatida xalq dostonlarini nashrga tayyorlab, chop ettirish muhim

o‘rin tutadi. U Anash xalfa va Ojiza xalfa repertuaridagi folklor asarlarini to‘plab nashr ettirdi. 2004-yilda S.R Ro‘zimboyev, X.S.Ro_zimboyev va G.O.Eshchonovalar bilan hamkorlikda "Go‘ro‘g‘li" turkumiga mansub Xorazm dostonlarini alohida to‘plam sifatida chop ettirdi. Shundan keyin Xorazm "Oshiq" turkumiga kiruvchi dostonlarni nashrga tayyorlab, chop ettirishga kirishgan olim "Oshiqnoma" nomi bilan 8 ta kitobni nashr ettirdi. Safarboy Ro‘zimboyevning folklorshunoslik faoliyatining xarakterli jihatlari juda ko‘p. Ulardan biri vohadagi Xorazm, Toshhovuz viloyatlari hamda

Qoraqalpog‘istondagi folklor asarlarini o‘zaro mutanosiblikda tadqiq qilish barobarida, o‘zbek, turkman va qoraqalpok xalqlari og‘zaki ijodiyotidagi teran tomirlarini topish, ulardagi mushtaraklik va o‘ziga xosliklarni oydinlashtirgani va asoslagani degan xulosaga kelish o‘rinlidir. Chunki "Go‘ro‘g‘li" turkumidagi dostonlar, "Yusuf va Ahmad", "Oshiq G‘arib va Shohsanam", "Shahriyor" dostonlari vohadagi barcha millat vakillariga birday tanish va sevib o‘qiladigan dostonlardir.

Fidoiy olim Safarboy Ro‘zimboyev o‘z ilmiy-ijodiy faoliyati davomida Xorazm folklorini tadqiq qilayotgan tadqiqotchilarga rahbarlik qilish, ularning ijodini ilmiy jamoatchilikka tanishtirish, folklorshunoslikning eng yangi yutuqlarini keng ommalashtirish, shuningdek, talabalar folklor amaliyotiga rahbarlik qilish orqali izchil to‘plovchilik ishlariga boshchilik qilish natijasida katta amaliy faoliyat ham olib bordi. Uning rahbarligida tayyorlangan "O‘zbek adabiyoti tarixi" (1998), "O‘zbek xalq poetik ijodi"(2001), "Adabiyotshunoslikka kirish"(2001), "Folklor atamaları qisqacha lug‘ati" (2007). "Xorazm dostonchiligi epik an‘analaril"(2007), "Folklor amaliyoti bo‘yicha tavsiyalar" (2007), "O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi" (2009) kabi o‘quv qo‘llanmalari faqatgina Urganch davlat universiteti talabalari uchun emas, balki butun Respublikamiz oliy ta‘im muassasalarining filologiya yo‘nalishlari talabalari uchun ham mos kelib, folklorshunoslikka oid amaldagi boshqa darslik va o‘quv qo‘llanmalarini to‘ldirib turadi. Bu jihatdan Olimning folklorshunoslikka oid o‘quv qo‘llanmalari va uslubiy qo‘llanmalarini o‘zbek folklorshunosligiga doir asosiy darslik va qo‘llanmalar bilan birlashtirish taklifini beraman. Chunki folklorshunos Safarboy Ro‘zimboyev va uning rahbarligidagi tadqiqotchilar guruhi tomonidan o‘zbek folklorining Xorazm tarmog‘iga oid g‘oyatda ko‘lamdor izlanishlar tahlili tashkil qiladi.

Olim rahbarligida to‘plangan ko‘plab maqollar, topishmoqlar, afsona, rivoyat, ertaklar, latifalar, turli irim-sirimlar, olqish va qarg‘ishlar, bolalar folkloriga oid materiallarni ketma-ket ravishda nashr qilish rejalashtirilganki, Bugungi kunda

bolalar folklori namunalari to'plash g'oyatda dolzarblik kasb etadi. Chunki go'dakka yoshligidan, beshikdan allalar orqali ezgulikni singdirish millatimizning o'ziga xos an'analimizni unutmaslikka va , asosiysi, insoniylik va vatanparvarlik tuyg'usini murg'ak qalbdagi kurtak yozishiga zamin yaratgan bo'lamiz. Bugungi globallashuv va axborotlar tezligi, internet, axborot texnologiyalari zamonida teran ildizlarimizdan quvvat olishdan uzoqlashmaslik milliyligimiz, o'zligimizni asrashga imkon beradi. Bunga erishuvimiz esa folklorshunoslikning dolzarb muammolariga yechim topayotganimizdan dalolat bo'la oladi.

Folklorshunos olim Safarboy Ro'zimboyevning o'zbek xalq og'zaki ijodining lokal xususiyatlari, xususan, Xorazm dostonchiligi an'analarning shakllanish tarixi, voha baxshilari va xalfachilik ijodining o'ziga xos tabiati, dostonlar sujetning tarixiy asoslari va poetikasi masalalariga doir jiddiy tadqiqotlari o'zbek folklorshunosligi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Xalq dostonlarini areal tadqiq etish yo'nalishini boshlab bergan fidoyi olim Safarboy Ro'zimboyev o'z shogirdlaridan Sabirova Nasiba Ergshevnaning ilmiy tadqiqotida keng va atroflicha tahlil qilinmoqda. Yosh olim Ro'zimboyev bilan hammualliflikda "Xorazm baxshichilik an'analari" Uslubiy qo'llanmasini yaratgan.¹⁷⁷ N.Sabirova "Xorazm dostonchilik maktablarining lokal xususiyatlari" nomli maqolasida mavzuni xalqaro miqyosdagi anjumanda yoritib, Xorazm folklori taraqqiyotida dostonchilik maktablari, dostonchilik an'analari, ularning genezisi, rivojlanish va taraqqiyoti, hamda turkiy xalqlar folklori bilan mushtarakligini tahlil qilib beradi.¹⁷⁸

Xorazm folklor asarlarining tili masalasi ham bilvosita Ustoz faoliyatida nazardan chetda qolmagan. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodi lahja va shevalarimizning o'ziga xos ko'zgusidir. Folklor asarlari tili esa haqiqiy xalq ijodiyotining ajoyib namunasidir.

Har bir folklor namunasida xalqimizning tili, tarixi, hayoti, turmush tarzi, urf-odatlar, an'analari, ijtimoiy, etnik, madaniy, ma'naviy- ma'rifiy jihatlari yorqin aks etadi. Shu sabab har qanday xalqning ulug'ligi, qadimiyligi, buyukligi, jahon tamaddunidagi o'rni qaysidir jihati bilan uning folklori, shevasi va lahjalari bilan belgilanadi. Demak, dialektlar va folklor namunalari etnosning millatligini belgilovchi, ko'rsatuvchi va ko'z-ko'z qiluvchi qimmatli manbadir.¹⁷⁹

¹⁷⁷ S.Ro'zimboyev, N.Sabirova "Xorazm dostonchilik epik an'analari", -Urganch, "Universitet" 2008.

¹⁷⁸ Sabirova N. "Xorazm dostonchilik maktablarining lokal xususiyatlari" / "3RD International Azerbaijan Congress on Humanities and social sciences" / November 26-28,2022. – Congress proceedings book ISBN: 978- 605-72169-1-5

¹⁷⁹ Karimova M."2ND INTERNATIONAL "ARTEMIS" CONGRESS ON HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES" I S B N : 9 7 8 - 6 0 5 - 7 2 1 6 9 - 5 -445-bet

Shevalar xalning jonli tili bo'lganligi bilan o'zgacha joziba kasb etadi. Shevaga oid so'zlardan hali "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 tomligiga kirmagan so'zlar bir talay bo'lib, bu sohada izlanishlar qilish ham dolzarb masala ekangini ko'rsatadi..

Shu nuqtayi nazardan "Oshiq" turkumi nashrining ahamiyati shundan iboratki, Unda doston ijrochilari – xalfalar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. Niyozjon Musayeva, So'na Eshmatova, Roziya Olloyorovalarning qisqacha tarjimayi holi, qaysi dostonlarni qaytarzda ijro etganliklari haqida ma'lumotlarning keltirilishi ushbu to'plam chinakam folklor majmuasi deb qabul qilsak bo'ladi.

Turkumning yana bir fazilati – kitob oxirida kitobxon uchun tushunarsiz yoki tushunilishi qiyin bo'lgan Xorazm shevasi so'zlari lug'atining keltirilishidir. Shuni ham ta'kidlash kerakki, lug'atda faqat sheva so'zlari bilan cheklanmay, bugungi kunda faol qo'llanmaydigan fors-tojik va arab so'zlari izohi ham keltirilgan. Izohli lug'atning ilova qilinishi bir tomondan matnni tez va oson tushunishga yordam bersa, ikkinchi tomondan sheva so'zlarining butunlay iste'moldan chiqib ketishining oldini olgan bo'ladi. Eposlar nashrida bunday ilovalarning keltirilishi xalq tafakkuri obidalarining zamonga hamnafas bo'la olishiga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning 2017-yil 24-maydagi PQ-2925-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash,tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tad birlari to'g'risida"gi qarori // "Xalq so'zi" gazetasi – Toshkent, 2017-yil, 25-may.

2."Go'ro'g'li " Xorazm dostonlari (nashrga tayyorlovchi S.Ro'zimboyev) – Urganch "Xorazm" nashriyoti, 2004.

3.Qobulniyozov J. "Xorazm xalq qo'shiqlari" – T.: "Fan", 1965. – B.23-27.

4.Jalolov T. "O'zbek shoiralari "1-kitob.- T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. – B239-241;

5.Qilichev T."Xorazm xalq teatri" –T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. B 114-124;

6..Mirzayev T. "Xalq baxshilarining epic repertuari". – T.: "Fan" –1979.

7. Abdullayev H. "So'z sehri" –T.: TDPU nashriyoti , 2005.– B.4-11:

8.Ro'zimboyev S. "Xalq dostonlari va xalfalar ijodi" // "Adabiy meros" .-T.: "Qo'lyozmalar instituti" nashriyoti, 1984. –B.9-13;

9. Ro'zimboyev S. "Ojiza" – T.: 2003.- B.-8;

10. Ro‘zimboyev S. “Anash xalfa”, – T.:“Milliy kutubxona “nashriyoti, 2006. – B.3-6;
11. Ro‘zimboyev S. “Xorazm dostonlari” –T.:“Fan”, 1985.–B.27-33;
12. Jumaniyozov O. “Xalfa” // “Ilm sarchashmalari”, Urganch. 2003, N# 4 – B.71-72
13. Rajabova X. “Ayol baxshillar ham bo‘ladimi?” “Ma‘rifat” gazetasi, 2002, 2-fevral soni
14. Rustamov A. “So‘z xususida so‘z”. – T., 1987.
15. Rozimboyev S.R. “Shalola” Urganch davlat universiteti filologik tadqiqotlar markazi – Urganch – 2022
16. Abdullayev H. “Maxtumduli va o‘zbek adabiyoti” –T.:“Fan”, 1983. – B.32;
17. Yusupov Yu. “Xorazm shoirlari”, –T.:“Adabiyot va san‘at”, 1988. –B.117.
18. Ro‘zimboyev S. va Sabirova N. ““Xorazm xalfachiligi an‘analari” uslubiy qo‘llanma // “Urganch davlat universiteti” nashriyoti 2020-yil. –B.188.
19. Ro‘zimboyev S. va Sabirova N. ““Xorazm xalfachiligi an‘analari” uslubiy qo‘llanma // “Urganch davlat universiteti” nashriyoti 2020-yil. –B.188- 4.
20. Matniyozov O. “Xalfa nomining etimologiyasi xususida” // Xorazm Ma‘mun akademisi xborotnomasi, 2016. N#4 –B.44
21. S. Ro‘zimboyev, N. Sabirova “Xorazm dostonchilik epik an‘analari”, – Urganch, “Universitet” 2008.
22. Sabirova N. “Xorazm dostonchilik maktablarining lokal xususiyatlari” / “3RD International Azerbaijan Congress on Humanities and social sciences” / November 26-28, 2022. – Congress proceedings book ISBN: 978- 605-72169-1-5
23. Karimova M. “2ND INTERNATIONAL “ARTEMIS” CONGRESS ON HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES” I S B N : 9 7 8 - 6 0 5 - 7 2 1 6 9 - 5 -445- bet
24. Sabirova N. “Xorazm baxshi va xalfachilik an‘analari” – monografiya. O‘R FA “Fan” nashriyoti. Toshkent.–2021. – 250b